

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING MILLIY IMIDJINI
BOSHQARISHDAGI RAHBARNING MENEJMENT QOBILIYATLARINI
TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI**

Valiyeva Hamida Rovshan Qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi.

Toshkent transport universiteti "Jismoniy tarbiya va sport kafedrası" assistenti.

Tel: (97)957-03-14. E-mail: hamidavaliyeva0314@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14838718>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda milliy imidj tushunchasining roli va ahamiyati, ta'lim tarbiya jarayonida milliy imidjning qanday shakllanishi, rivojlanishi va uning ijtimoiy ahamiyati haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: image, joriy imidj, maqbul imidj, korporativ imidj, ko'p sonli imidj, maktabgacha ta'lim tashkilotining imidji, imidj ob'ektlar, ijimoiy ta'sirchan shaxslar, pedagogik jamoa a'zolari.

**BASIS OF IMPROVING THE MANAGEMENT SKILLS OF A LEADER IN
MANAGING THE NATIONAL IMAGE OF A PRESCHOOL EDUCATIONAL
ORGANIZATION**

Abstract. This article discusses in detail the role and importance of the concept of national image in preschool education, how the national image is formed, developed and its social significance in the educational process.

Keywords: image, current image, acceptable image, corporate image, multiple images, image of a preschool educational organization, image objects, socially influential individuals, members of the pedagogical team.

**ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ НАВЫКОВ
РУКОВОДИТЕЛЯ ПО УПРАВЛЕНИЮ НАЦИОНАЛЬНЫМ ИМИДЖЕМ
ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ**

Аннотация. В статье подробно рассматриваются роль и значение концепции национального имиджа в дошкольном образовании, как формируется и развивается национальный имидж в образовательном процессе, его социальная значимость.

Ключевые слова: имидж, актуальный имидж, приемлемый имидж, корпоративный имидж, множественные имиджи, имидж дошкольной образовательной организации, объекты имиджа, социально значимые личности, члены педагогического коллектива.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining milliy imidji tushunchasi, o'z navbatida, jamiyatdagi ta'limning boshlang'ich bo'limi sifatida o'ziga xosligini, maqsad va vazifalarini, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishdagi rolini ifodalaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining milliy imidji nafaqat tarbiyalanuvchilarga ta'lim berishda, balki jamiyatda umumiy madaniy, axloqiy va ma'naviy rivojlanishning poydevorini yaratishda ham muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonlar, O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi va maktabgacha ta'lim sohasidagi qonuniy asoslar bilan bevosita bog'liq bo'lib hozirgi kunda maktabgacha ta'limni rivojlantirish, ta'limga bo'lgan yondashuvlarni yangilash va sifatini oshirish bo'yicha ko'plab huquqiy me'yorlar va qonunlar qabul qilingan. Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi¹ va "Maktabgacha ta'lim va tarbiya"² to'g'risidagi Qonunlar va "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi³ Prezident Qarorlarida va boshqa ko'plab me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan. Ushbu hujjatlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining milliy imidjini shakllantirish va uning jamiyatda to'g'ri ifodalanganligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Maktabgacha ta'limning milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishdagi roli, ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi³ Qarorida o'z aksini topgan bo'ib, maktabgacha ta'limni modernizatsiya qilish bo'yicha davlatning strategik yo'nalishlari bilan uyg'unlashgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi⁴ va Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya⁵ kabi xalqaro huquqiy hujjatlar, bolalarning ta'lim olish huquqini kafolatlaydi va ta'lim tizimini rivojlantirishda milliy imidjni shakllantirish zaruratini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim tizimi bolalarga ta'lim berishda ularning o'ziga xos etnik va madaniy identifikatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu, o'z navbatida, jamiyatning axloqiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining milliy imidji, davlat tomonidan taqdim etilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirilgan islohotlar bilan bevosita bog'liqdir. Ta'lim tizimini raqamlashtirish va modernizatsiya qilish bo'yicha qabul qilingan qonunlar va qarorlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy imidjni yaratishda texnologiyalarni integratsiya qilishga imkon beradi, bu esa bolalarning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni 2019-yil 16-dekabr.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori.

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020 yildagi 802-son

⁴ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi -T.: O'zbekiston, 2023-yil.

⁵ Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya. BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil

Bizningcha maktabgacha ta'lim tashkilotining milliy imidji tushunchasi O'zbekiston Respublikasining huquqiy asoslari va ta'lim tizimining rivojlanish yo'nalishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jamiyatdagi madaniy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'limda milliy imidj tushunchasining roli va ahamiyatini tahlil qilishda, ushbu sohaga oid bir qator ilmiy tadqiqotlar, yondashuvlar va ilmiy fikrlarga to'xtalib o'tish muhimdir. Avvalo, milliy imidjning ta'lim tizimidagi o'rni va uning jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va axloqiy rivojlanishga ta'siri haqida mavjud ilmiy asarlar tahlil qilish shuningdek, milliy imidj tushunchasining pedagogik jarayonda qo'llanilishi va uning bolalar ta'limidagi roli haqidagi ilmiy yondashuvlar ko'rib chiqamiz.

Milliy imidjning ta'lim tizimida qanday shakllanishi, uning pedagogik va psixologik asoslari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borgan Respublikamiz olimlari, jumladan, Q.Nazarov, K.A.Eshpulatov, N. Jo'rayeva, Sh. Safaraliyeva, F. Jevkin va boshqalarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, milliy imidj nafaqat milliy identifikatsiyaning, balki jamiyatda ijtimoiy va madaniy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishining muhim omilidir. Tarbiyachilarning professional tayyorgarligi va pedagogik metodlari, milliy imidjning o'quvchilarga to'g'ri tarzda etkazilishiga imkon yaratadi. Tadqiqotlar natijasida, milliy imidj bolalar ta'limida, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ijtimoiy va madaniy adaptatsiyaning poydevorini yaratishda muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi.

Imidj (inglizcha "image" – qiyofa, tasvir) tushunchasini Q.Nazarov quyidagicha ta'riflaydi: "Imidj – odamlar ongida muayyan shaxs, tashkilot yoki boshqa ijtimoiy obyektga nisbatan yuzaga keladigan, idrok etilayotgan obyekt haqidagi axborotni o'zida mujassamlashtirgan va ijtimoiy xulq-atvorga da'vat etadigan muayyan sintetik obraz."

Muallifning fikriga ko'ra, imidjning ikki turi mavjud: korporativ imidj (kompaniya, firma, korxona, muassasa, siyosiy partiya, jamoat tashkiloti va hokazo imidji) va individual imidj (siyosatchi, biznesmen, artist, rahbar, ijtimoiy harakat yetakchisi kabi alohida shaxslarning imidji).

Ikkala holda ham tashqi va ichki imidj mavjud. Tashkilotning tashqi imidji – bu uni qurshagan muhitda, mazkur tashkilotning mijozlari, iste'molchilari, raqiblari, hokimiyat organlari, OAV, jamoatchilik ongida u haqda shakllanadigan obraz va tasavvur. Individdning tashqi imidji, o'z navbatida, verbal, vizual, axloqiy, estetik ifoda usullari va xulq-atvorning har xil shakllaridan tarkib topadi. Bu imidjga bevosita yoki bilvosita aloqaga kirishadigan odamlar esa imidjning subyekti hisoblanadi⁶.

⁶ Q.Nazarovning va boshqalar "Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati" Toshkent- 2021.

Imidj masalasida funksional yondashuvni qo'llagan ingliz olimi F. Jevkinz imidjning turli turlarini taklif qiladi. Uning fikriga ko'ra, imidjning quyidagi turlari mavjud: Ko'zgusimon imidj – bu shaxsning o'ziga nisbatan tasavvurlari va o'zini idrok etishi asosida shakllanadigan imidjdir. Bu imidj shaxsning o'ziga bo'lgan qarashlari, ichki tasavvurlari va o'zini qanday ko'rishi bilan bog'liq bo'ladi.

Joriy imidj – bu tashqi ko'rinish, boshqalar tomonidan qabul qilingan, biz haqimizdagi tasavvurlarni aks ettiruvchi imidjdir. Boshqalar bizni qanday ko'rsa, bizni qanday idrok etsa, bu imidjni yaratadi.

Maqbul imidj – bu shaxsning o'zining ideal holatiga intilishi, maqsadlari va kelajakdagi ko'rinishini aks ettiruvchi imidjdir. Bu imidj shaxsning o'ziga bo'lgan intilishlari va o'zini qanday ko'rishni xohlayotgani bilan bog'liq.

Korporativ imidj – bu tashkilotning faqat ayrim bo'linmalari yoki ish natijalari emas, balki umuman tashkilotning umumiy tasavvuri va qiyofasidir. Tashkilotning o'ziga xos xususiyatlari va jamoatchilikdagi obro'si bu imidjni tashkil etadi.

Ko'p sonli imidj – bu yagona korporatsiya o'rnida bir nechta mustaqil tuzilmalar mavjud bo'lib, ular o'zaro aloqada bo'lgan holda shakllanadigan imidjdir. Bu holatda, korporatsiyaning bir nechta bo'linmalari yoki alohida tuzilmalari o'zlariga xos imidjga ega bo'ladi, biroq ular umumiy maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi.

F. Jevkinz tomonidan taklif qilingan bu imidj turlari har biri o'zining ijtimoiy, psixologik va madaniy xususiyatlariga asoslangan bo'lib, shaxs va tashkilotlarning atrof-muhitda qanday qabul qilinishi va qanday tasavvur qilinishi bilan bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining milliy imidjini yaratishda milliy qadriyatlar va madaniyatni targ'ib qilishning pedagogik metodologiyasi bilan bog'liq tadqiqotlar olib brogan N.Sh.Abdullayeva, D.Zuparova kabi tadqiqotchilarning ishlariga alohida e'tibor qaratadigan bo'lsak, pedagogik metodlarni qo'llashda zamonaviy metodlarni bolalar yoshining xususiyatlariga mos ravishda qo'llanilishi orqali milliy imidjni ta'lim jarayoniga kiritish zarurligini ta'kidlaydilar.

Bu jarayon, tarbiyachilarning metodlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, milliy qadriyatlarning ifodalanishi bolalar ta'limida muhim ahamiyatga ega. Ilmiy izlanishlarda, milliy qadriyatlarning bolalar shaxsiyatining shakllanishida va ijtimoiy moslashuvda qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining imidji, shu tarzda, bolalarga milliy qadriyatlarni o'rgatishda, ularning ijtimoiy va madaniy moslashuvini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

K.A. Eshpulatovning fikriga ko'ra, yoshlarda milliy qadriyatlar tushunchasini rivojlantirishda forumlar, tanlovlar va dasturlar tashkil etish muhim ahamiyatga ega. U, o'zbek millati qadriyatlari va an'alarini aks ettiruvchi muzeylar, kutubxonalar va madaniyat markazlarini

tashkil etish va rekonstruksiya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, jamiyatning barcha qatlamlarini, ayniqsa yoshlar va ota-onalarni bu jarayonga jalb qilish kerakligini ta'kidlab, "Milliy qadriyatlar maktabi" interaktiv portalini yaratishni taklif qiladi. Bu portalga ta'lim jarayonida qadriyatlarni va ularning ma'nolarini aks ettiruvchi materiallar, video darslar, ertaklar va boshqa didaktik resurslar kiritilishi zarur.

Olimling fikricha, tarbiyachilarning pedagogik metodlari va ularning faoliyati milliy qadriyatlarni yosh bolalar ongiga singdirishdagi asosiy vosita hisoblanadi. U, interaktiv mashg'ulotlar orqali bu qadriyatlarni samarali tarzda ta'lim jarayoniga kiritish zarurligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan muntazam ravishda forumlar va chatlar orqali muloqot o'rnatish, ularni qadriyatlar haqida bilgilantirish va pedagoglar bilan fikr almashish imkoniyatini yaratish muhimligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, K.A. Eshpulatov ma'naviyatning bugungi kunda har qachongidan ham ahamiyatli ekanligini va jamiyatdagi barcha tizim rahbarlari, xodimlari, shu jumladan pedagoglar, ma'naviyatni rivojlantirish yo'lida faollik ko'rsatishlari kerakligini ta'kidlaydi. Moddiy va ma'naviyatni teng ko'rish va ularni ongimizda, qalbimizda mustahkamlash zarurligini urg'ulaydi.⁷

Maktabgacha ta'lim tashkilotining imidjini shakllantirish nafaqat bilim beruvchi muassasalar, balki jamiyatda madaniy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantiruvchi poydevor hisoblanadi. Milliy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga singdirish va ularga asoslangan pedagogik metodologiyalarni qo'llash ta'lim maktabgacha ta'lim tashkiloti imidjini zamonaviy, jozibali va qadriyatlar bilan boyitilgan tarzda shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni targ'ib qilish va ularni ta'lim resurslari orqali bolalar ongiga singdirish, maktabgacha ta'lim tashkilotining imidjini nafaqat zamonaviy ta'lim muassasasi sifatida, balki milliy an'ana va qadriyatlarni saqlovchi va rivojlantiruvchi muassasa sifatida ham mustahkamlaydi. Bu jarayon maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining faoliyati va metodologiyasining yuqori darajada bo'lishini talab qiladi. Chunki tarbiyachilar bolalarga milliy qadriyatlarni singdirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan tanlovlar, festivallar, onlayn ma'ruzalar va boshqa tadbirlar, tashkilotning ijtimoiy imidjini oshirib, jamiyat bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlaydi. Bu esa, ta'lim tashkilotining jamiyatdagi o'rni va e'tiborini yanada kuchaytiradi.

N. Jo'rayeva va Sh. Safaraliyevaning datadqiqotlarida "imidj" yoki "obraz" atamasi psixikamizda aks ettirilgan ob'ektlarning ko'rinadigan va ko'rinmas xususiyatlarining birlashmasi

⁷ K.A.Eshpulatov, Sh.N. Qosimova / "Improving the National System Focused on Spiritual and General Human Values" EXCELLENCIA: INTERNATIONAL MULTI-DISCIPLINARY JOURNAL OF EDUCATION. Volume 02, Issue 05, 2024 ISSN (E): 2994-9521.

sifatida ta'riflanadi. Bu atama ob'ektning tashqi ko'rinishi bilan birga, uning ideal va ichki xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi. Ta'lim menejmentida esa, imidj yaratish muhim vosita sifatida, ta'lim tashkilotlarining, pedagoglari va rahbarlarning o'ziga xos tasvirlarini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Ta'lim tashkilotining imidji uning sifatini, pedagogik faoliyatini va jamiyatdagi obro'sini ta'sirchan tarzda aks ettiradi⁸.

N. Jo'rayevaning ta'kidlashicha "rasmiy imidj haqida gapirganda, davlatning ichki va tashqi tasvirlari o'rtasidagi farqni aniqlash zarur. Davlatning ichki tasviri uning fuqarolari tomonidan qanday qabul qilinayotgan bo'lsa, tashqi tasviri jahon hamjamiyatida qanday ko'rinishga ega ekanligi bilan bog'liqdir".

Maktabgacha ta'lim tizimi uchun bu masala ayniqsa ahamiyatlidir, chunki tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalari uchun ta'lim tashkilotining ichki ko'rinishi (ta'lim jarayonining sifati, muhit, rahbarlik va pedagoglarning sifati) tashqi imidjini yaratadi. Tashqi imidj esa, maktabgacha ta'lim tashkilotining obro'si va reytingiga ta'sir etadi, bu esa kelajakdagi tarbiyalanuvchilar va ular bilan ishlovchi pedagog xodimlarning tanloviga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi mualliflik ta'rifini belgiladik. **Maktabgacha ta'lim tashkilotining imidji** - maktabgacha ta'lim tashkilotining umumiy qiyofasini tashkil qilib tashkilotning moliyaviy holati, pedagoglarining malakasi, rahbarlarning shaxsiy fazilatlarini, ta'lim metodikalari, jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyati va axloqiy faoliyatiga asoslanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ijtimoiy mas'uliyatni qabul qilishi, pedagog xodimlarga g'amxo'rlik qilishi, hamda axloqiy me'yorlarga rioya qilishi uning imidjini mustahkamlaydi va jamoatchilik bilan ijobiy munosabatlarni o'rnatadi.


Biz, imidj yaratish jarayoni ta'lim menejmentining asosiy vazifalaridan biridir deb xisoblaymiz. Bu faoliyat ta'lim tashkilotining esda qolarli va o'ziga xos qiyofasini yaratishga qaratilgan bo'lib, tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalariga yaxshi taassurot qoldirish uchun, maktabgacha ta'lim tashkiloti o'zining imidjini samarali boshqarishi kerak. Bu jarayon ta'lim tizimining barcha qismlarini (pedagoglar, rahbarlar, xodimlar va boshqalar) birlashtirgan holda, aniq va o'ziga xos tasvirni yaratishga xizmat qiladi.

Ta'lim menejmentida imidjni yaratish faqatgina tashqi ko'rinishni boshqarish bilan cheklanmaydi, balki uning sifatini, tizimdagi ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatni, pedagoglar va tarbiyalanuvchilarga bo'lgan munosabatni ham aks ettiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining imidjini takomillashtirish orqali, uning obro'sini oshirish va jamiyatda o'z o'rnini yanada mustahkamlash mumkin bo'ladi.

⁸ Jo'rayeva Nilufar., Safaraliyeva Shahrizoda Sanjar qizi / Imidj kommunikatsiya // Uzbek Scholar Journal // Volume-28, May – 2024. B-39.

Biz, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun imidj yaratish ob'ektlarini tahliliy yondoshuv asosida metodologik jihatdan o'rganib chiqdik.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining imidji, ularning jamiyatdagi o'rni va obro'si shakllanishida bir qator muhim omillar va shaxslar bevosita ta'sir qiladi. Biz bu omillarni "imidj yaratish ob'yektlari" deb atadik va ular maktabgacha ta'lim tashkilotining jamiyatdagi kayfiyatiga, uning pedagogik sifatiga, hamda ota-onalar bilan o'zaro munosabatlariga qarab farq qiladi. Ushbu obyektlarni tahlil qilish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari muvaffaqiyatining asosiy omillarini anglash va ularga e'tibor qaratishda yordam beradi(1.1. 1-rasm).



1.1. 1-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida imidj yaratish ob'yektlari.

Pedagogik jamoa a'zolari: pedagogik shaxslar maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy faoliyatini amalga oshiradigan va uning imidjini bevosita shakllantiradigan shaxslar hisoblanadi.

Tarbiyachilar va pedagogik jamoa a'zolarining kasbiy mahorati, pedagogik yondoshuvlarining samaradorligi, va ularning bolalar bilan ishlashdagi muomala madaniyati tashkilotning jamiyatdagi obro'sini belgilaydi. Masalan, bolalar uchun sifatli ta'limni ta'minlash, ularning rivojlanishini rag'batlantirish va psixologik muhitni yaratish orqali pedagogik shaxslar maktabgacha ta'lim tashkilotining reytingini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, pedagoglarning ijtimoiy mas'uliyati, bolalar bilan muomala qilishda ehtiyotkorlik va ularning farovonligini ta'minlashga qaratilgan harakatlari, tashkilotning ijobiy qiyofasini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Ota-onalar bilan hamkorlik: ota – onalar va ularni o‘rnini bosuvchi shaxslar maktabgacha ta’lim tarbiya jarayonida bevosita ishtirok etuvchi va ta’lim tashkilotining imidjiga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy obyektlardan biridir. Samarali tarzda ota-onalar bilan hamkorlik olib boorish, bolalar uchun yaxshi ta’lim tarbiya muhitini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalar bilan samarali aloqalar, ularning pedagogik jarayonga bo‘lgan ishonch va ishtirokini oshirish, tashkilotning obro‘cini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Bu, ayniqsa, ota-onalarning fikr-mulohazalarini inobatga olish, ularning ehtiyojlarini qondirish, va ta’limda yuzaga keladigan muammolarni birgalikda hal qilishda o‘zini namoyon qiladi. Bunday hamkorlik, ta’lim sifatini oshiradi va maktabgacha ta’lim tashkilotining jamiyatdagi imidjini yaxshilaydi.

Ijtimoiy ta’sirchan shaxslar: maktabgacha ta’lim tashkilotlarining imidjiga ijtimoiy ta’sirchan shaxslar ham ta’sir ko‘rsatadi. Bu guruhga siyosatchilar, mahalliy liderlar, ommaviy axborot vositalarining vakillari va boshqa jamiyatdagi faol shaxslar kiradi. Ijtimoiy ta’sirchan shaxslar, maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishiga yordam berish yoki tashkilot haqidagi fikrlarni shakllantirishda bevosita ta’sir o‘rnatadilar. Ularning fikrlari va tavsiyalari jamiyatda maktabgacha ta’lim tashkilotining obro‘cini oshiradi yoki kamaytiradi. Shu sababli, ijtimoiy ta’sirchan shaxslar bilan aloqalar va ularning ta’lim tashkilotiga nisbatan pozitif munosabatlarini shakllantirish tashkilot uchun muhim ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni 2019-yil 16-dekabr.
2. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya. BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil.
3. Q.Nazarovning va boshqalar “Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug’ati” Toshkent- 2021.
4. K.A.Eshpulatov, Sh.N. Qosimova / “Improving the National System Focused on Spiritual and General Human Values” excellencia: international multi-disciplinary journal of education. Volume 02, Issue 05, 2024 b-3.
5. Jo’rayeva Nilufar., Safaraliyeva Shahrizoda Sanjar qizi / Imidj kommunikatsiya // Uzbek Scholar Journal // Volume- 28, May – 2024. b-39.